

- дальнейшее укрепление физического и психического здоровья молодёжи, её полноценная здоровая и активная жизнь, высокий уровень заботы о здоровье и воспитание здорового поколения в результате совершенных репродуктивных процессов;

- коренным образом реформировать образовательные и воспитательные процессы в обществе, воспитывать инновационную молодёжь с высоким потенциалом, увеличивать количество школ, высших учебных заведений и, соответственно, численность студентов и учащихся, а также повышать качество подготовки кадров на основе высоких требований;

дальнейшее укрепление прав, свобод и достоинства молодёжи, обеспечение её социальных интересов, создание условий жизни, соответствующих современным условиям и международным стандартам, с внедрением инновационных технологий;

внедрение в общественную жизнь различных льгот для молодёжи, организации предпринимательства и бизнеса, а также внедрение всё большего количества программ, направленных на дальнейшее улучшение благосостояния семьи и условий жизни.

### Список литературы

1. Ш.М.Мирзиёв. Новогоднее поздравление народу Узбекистана. 31.12.2021. <https://president.uz/uz/lists/view/4857>.
2. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан. Об утверждении Концепции развития государственной молодежной политики в Узбекистане до 2025 года. Ташкент, 18 января 2021 г., № 23. <https://lex.uz/ru/docs/5234746>.
3. Рустамов Н. Уровень жизни населения и возможности его повышения в Узбекистане. Научный электронный журнал «Экономика и инновационные технологии». №5, 2015. -С. 5.
4. Кодиров А., Нарбаева Т. и др. Дорогой, единственный любимый мой Узбекистан. - Ташкент: Издательство «Мухаррир», 2018. -С. 65.
5. Осадчая Г.И. Социальная сфера общества: теория и методология социологического анализа. М., 1996. - С. 56.
6. Иминов Б. Гармония в идеологических отношениях. //Общественная мысль, права человека, 2001. № 2. - С. 81

## BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA IJTIMOY MAS’ULIYAT VA AXLOQIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TA’LIM VOSITALARINING ROLI

<sup>1,2</sup>Axunbabayeva Shaxnoza Shuxratovna

<sup>1</sup>Jizzax davlat pedagogika universiteti Maktabgacha ta’lim nazariyasi va metodikasi kafedrasida o‘qituvchisi

<sup>2</sup>Guliston davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada raqamli ta’lim vositalarining bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy mas’uliyat va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishdagi roli tahlil qilinadi. Raqamli ta’lim muhiti shaxsiy va kasbiy rivojlanish, shuningdek, o‘qituvchi shaxsining axloqiy-ijtimoiy barkamolligini ta’minlashdagi innovatsion imkoniyat sifatida yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** raqamli ta’lim, ijtimoiy mas’uliyat, axloqiy qadriyatlar, pedagogik texnologiyalar, deontologik yondashuv, raqamli madaniyat, axborot kompetensiyasi, interaktiv ta’lim, kasbiy etika.

## THE ROLE OF DIGITAL EDUCATIONAL TOOLS IN THE FORMATION OF SOCIAL RESPONSIBILITY AND MORAL VALUES IN FUTURE TEACHERS

<sup>1,2</sup>Akhunbabayeva Shakhnoza Shukhratovna

<sup>1</sup>Teacher of the Department of theory and methodology of preschool education of Jizzakh State Pedagogical University

<sup>2</sup>Independent researcher at Gulistan State University

**Annotation:** This article analyzes the role of digital educational tools in the formation of Social Responsibility and moral values in future teachers. The digital educational environment is illuminated as an innovative opportunity in personal and professional development, as well as in ensuring the moral and social perfection of the teacher's personality. The article outlines ways to develop values such as

responsibility, honesty, justice, respect and patriotism in future teachers using digital pedagogical technologies.

**Keywords:** digital education, social responsibility, moral values, pedagogical technologies, deontological approach, Digital Culture, Information competence, interactive education, professional ethics.

## **РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В ФОРМИРОВАНИИ СОЦИАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ И НРАВСТВЕННЫХ ЦЕННОСТЕЙ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ**

<sup>1,2</sup>**Ахунбабаева Шахноза Шухратовна**

<sup>1</sup>Преподаватель кафедры теории и методики дошкольного образования Джизакского государственного педагогического университета

<sup>2</sup>Независимый исследователь в Гулистанском государственном университете

**Аннотация:** В данной статье анализируется роль цифровых образовательных инструментов в формировании социальной ответственности и нравственных ценностей у будущих педагогов. Цифровая образовательная среда рассматривается как инновационная возможность для личностного и профессионального развития, а также для обеспечения нравственного и социального совершенствования личности педагога. В статье описываются способы развития у будущих педагогов таких ценностей, как ответственность, честность, справедливость, уважение и патриотизм, с помощью цифровых педагогических технологий.

**Ключевые слова:** цифровое образование, социальная ответственность, нравственные ценности, педагогические технологии, цифровая культура, информационная компетентность, интерактивное обучение, профессиональная этика.

**Kirish.** Globallashuv jarayoni, raqamli transformatsiya va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tezkor rivojlanishi ta'lim tizimini tubdan o'zgartirmoqda. XXI asrda ta'limning mazmuni, shakli va metodlari nafaqat an'anaviy bilim berish funksiyasini bajaradi, balki talabalarining shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan integratsiyalashgan jarayon sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, raqamli muhitda ta'lim olish imkoniyati o'qituvchidan yangi talablarga javob berishni, jumladan innovatsion pedagogik yondashuvlarni, interaktiv va modul asosidagi metodlarni qo'llay olishni, shuningdek, axloqiy va ijtimoiy mas'uliyatni namoyon eta olishni talab qiladi. Zamonaviy texnologiyalar bo'lajak pedagoglardan faqat kasbiy bilim va metodik tayyorgarlikni emas, balki ularning axloqiy yetukligi, raqamli savodxonligi hamda shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirishni talab qiladi.

Bugungi o'qituvchi endi shunchaki ma'lumot uzatuvchi emas, balki jamiyatning ma'naviy, madaniy va axloqiy taraqqiyotini qo'llab-quvvatlovchi yetakchi shaxs sifatida faoliyat yuritadi. Shu nuqtayi nazardan, u o'z kasbiy faoliyatini axloqiy me'yorlar, pedagogik qadriyatlar va deontologik prinsiplar asosida shakllantirishi shart. Raqamli pedagogik muhit esa bu jarayonda talabalarga nafaqat bilim olish imkonini yaratadi, balki ularning mustaqil fikrlash, tahliliy qaror qabul qilish, kreativ va muammoli vaziyatlarni hal qilish, shuningdek jamoada samarali ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishda vosita vazifasini bajaradi.

Elektron ta'lim platfomalari, interaktiv dasturlar, sun'iy intellekt tizimlari, raqamli kutubxonalar, virtual laboratoriyalar va simulyatsion muhitlar - bularning barchasi bo'lajak o'qituvchining shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini, axloqiy va ijtimoiy mas'uliyatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, raqamli vositalar yordamida pedagoglar talabalarining axborotga mas'uliyatli yondashuvini, onlayn muloqotda madaniyatini, shaxsiy va jamoaviy ishlarni tashkil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniga ega bo'ladilar. Bunday pedagogik yondashuvlar ta'lim jarayonini yanada interaktiv, individual va motivatsion qiladi, natijada bo'lajak pedagoglar nafaqat kasbiy jihatdan, balki axloqiy va ijtimoiy jihatdan ham yetuk shaxs sifatida shakllanadi. Shu sababli zamonaviy ta'lim tizimida raqamli pedagogik texnologiyalarni samarali loyihalashtirish va ularni amaliyotga tatbiq etish bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy mas'uliyat, axloqiy qadriyatlar va raqamli savodxonlikni rivojlantirishning muhim vositasiga aylanadi.

**Asosiy qism.** Zamonaviy ta'lim jarayoni globallashuv, raqamli transformatsiya va axborot texnologiyalarining tezkor rivojlanishi sharoitida yangi pedagogik yondashuvlarni talab etadi. Shu kontekstda raqamli vositalar bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini nafaqat metodik va texnologik jihatdan boyitadi, balki ularning axloqiy, ijtimoiy va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishda

ham muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Raqamli muhitda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi interaktiv hamkorlik o'qituvchining "raqamli pedagog modeli" doirasida faoliyat yuritishini ta'minlaydi: pedagog texnologik jihatdan savodli, axloqiy jihatdan yetuk, ijtimoiy mas'uliyatga ega shaxs sifatida rivojlanadi. Raqamli pedagogik muhitning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

**Axborot bilan tanqidiy ishlash** – talaba va o'qituvchi axborotni passiv iste'molchisi bo'lmastan, uni tahlil qilish, solishtirish va baholash orqali mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu jarayon ijtimoiy mas'uliyatni mustahkamlashga ham xizmat qiladi, chunki tanqidiy fikrlash shaxsni ongli va mas'uliyatli qarorlar qabul qilishga tayyorlaydi.

**Raqamli etik va mas'uliyatli xulq-atvor** – plagiatni oldini olish, intellektual mulk huquqlarini hurmat qilish, onlayn muloqotda madaniyat va etik tamoyillarni saqlash talabalarda axborot etikasi va raqamli mas'uliyatni rivojlantiradi.

**Ijtimoiy hamkorlik va raqamli kommunikatsiya** – interaktiv platformalar (Moodle, Google Classroom, Edmodo, Coursera) orqali guruhiiy loyihalar, onlayn muhokamalar va fikr almashuvlar talabalarda jamoaviy mas'uliyat, hamkorlik, hamda hurmatni shakllantiradi. Shu bilan birga, masofaviy va global muhitda samarali ishlash ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

**Axloqiy va fuqarolik ongini rivojlantirish** – onlayn loyihalar, interaktiv mashg'ulotlar va virtual simulyatsiyalar orqali talabalarda kasbiy, axloqiy va fuqarolik qadriyatlarini chuqurroq o'zlashtiriladi, shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyat uyg'unlashadi.

**Axloqiy qadriyatlarni shakllantirishning raqamli vositalar orqali strategiyalari.** Bo'lajak o'qituvchilarda axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish kasbiy tayyorgarlikning ajralmas qismi hisoblanadi. Raqamli vositalar interaktivlik, shaxsiylashtirilgan o'qitish, refleksiya va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish imkoniyatini beradi. Bunga quyidagi yo'nalishlar kiradi:

**Deontologik ta'lim** – "Pedagogik etika", "Kasbiy madaniyat" va "Pedagogik deontologiya" fanlarini raqamli platformalarda o'qitish, sun'iy intellekt orqali axloqiy dilemmalarni modellashtirish orqali talabalarni axloqiy qaror qabul qilishga tayyorlash.

**Virtual muammoli vaziyatlar (case-study)** – adolatsizlik, plagiat yoki intizomiy buzilish kabi real vaziyatlarni tahlil qilish orqali talabalarda axloqiy va mas'uliyatli xulq-atvorni shakllantirish.

**Raqamli refleksiya** – bloglar, onlayn kundaliklar va forumlar orqali talabalar o'z axloqiy tajribasini tahlil qiladi, shaxsiy rivojlanish strategiyalarini belgilaydi, o'z xatolaridan o'rganadi va qaror qabul qilish qobiliyatini mustahkamlaydi.

**Axborot etikasi va raqamli madaniyat treninglari** – shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, intellektual mulkni hurmat qilish, onlayn muloqotda madaniyat va etik tamoyillarni amaliyotda o'rgatish.

**Raqamli jamoaviy loyihalar va ijtimoiy tashabbuslar** – ekologiya, inson huquqlari, milliy va madaniy qadriyatlarni targ'ib qiluvchi onlayn loyihalar orqali ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik ongini rivojlantirish.

**Pedagogik texnologiyalarni raqamli yondashuv orqali loyihalashtirish.** Raqamli vositalar pedagogik texnologiyalarni interaktiv, innovatsion va shaxsiylashtirilgan shaklda loyihalashtirish imkonini beradi, shu bilan birga axloqiy, ijtimoiy va kasbiy qadriyatlarni uyg'unlashtiradi.

**Axloqiy qadriyatlarni amalda o'rgatish** – empatiya, halollik, adolat va hamkorlikni virtual muammoli vaziyatlar orqali rivojlantirish.

**Axloqiy xavfsizlikni ta'minlash** – plagiatni aniqlash tizimlari, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish mexanizmlari va raqamli etikani amalda qo'llash.

**Gamifikatsiya va simulyatsiyalar** – axloqiy qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, rag'bat va raqobatni oshirish orqali pedagogik jarayonni interaktiv va qiziqarli qilish.

**Ijtimoiy mas'uliyat va axloqiy qadriyatlarni integratsiya qilish.** Bo'lajak pedagogning shaxsiy qadriyat tizimi uning kasbiy madaniyati va pedagogik faoliyatining poydevorini tashkil etadi. Raqamli portfoliolar, onlayn baholash tizimlari, virtual loyihalar va axborot almashinuvi platformalari orqali axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy mas'uliyat birlashtiriladi. Natijada bo'lajak pedagoglar nafaqat kasbiy va texnologik jihatdan savodli, balki etik, mas'uliyatli va fuqarolik jihatdan yetuk shaxslar sifatida shakllanadi. Shu bilan birga ular zamonaviy raqamli muhitda mustaqil qaror qabul qilish, jamoadagi rolini anglash va ijtimoiy mas'uliyatni amalda qo'llash qobiliyatiga ega bo'ladi. Bo'lajak o'qituvchilarda axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish ularning kasbiy tayyorgarligining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Raqamli vositalar esa bu jarayonda nafaqat axborot va metodik resurslarni yetkazish, balki shaxsiylashtirilgan o'qitish, interaktiv mashg'ulotlar, refleksiya va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish imkonini beradi. Shu orqali talaba nafaqat nazariy bilimga ega bo'ladi, balki axloqiy qaror qabul qilish, mas'uliyatli xulq-atvorni shakllantirish va jamiyatdagi o'rni bilan bog'liq masalalarni anglash qobiliyatini rivojlantiradi.

**Raqamli jamoaviy loyihalar va ijtimoiy tashabbuslar** – ekologiya, inson huquqlari, milliy va madaniy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi onlayn loyihalar orqali talabalarda ijtimoiy mas‘uliyat va fuqarolik ongini rivojlantirish. Shu bilan birga, talaba o‘z fikrini jamoa bilan uyg‘unlashtirish, resurslarni samarali boshqarish va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Pedagogik texnologiyalarni raqamli yondashuv orqali loyihalashtirish Raqamli vositalar pedagogik jarayonni nafaqat texnologik jihatdan boyitadi, balki uni interaktiv, moslashuvchan va innovatsion shaklga keltirish imkonini beradi. Shu bilan birga ular bo‘ljak o‘qituvchilarni axloqiy, ijtimoiy va kasbiy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirilgan holda tayyorlashda markaziy vosita vazifasini bajaradi. Raqamli yondashuv pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirishda bir nechta muhim komponentlarni o‘z ichiga oladi:

**Kasbiy mas‘uliyatni oshirish.** Raqamli platformalar orqali topshiriqlarni adolatli taqsimlash va shaffof baholash tizimini joriy qilish mumkin. Talabalar individual ehtiyojlari, qobiliyat va bilim darajalariga moslashtirilgan topshiriqlarni oladi, bu esa ularning kasbiy etika va pedagogik mas‘uliyatni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, o‘qituvchi baholash jarayonida adolat va shaffoflikni saqlash orqali talabalarda mas‘uliyat va o‘zini anglash hissini rivojlantiradi.

**Axloqiy qadriyatlarni amalda rivojlantirish.** Virtual muammoli vaziyatlar, simulyatsiyalar va gamifikatsiya metodlari talabalarda empatiya, halollik, adolat va hamkorlik kabi axloqiy fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Masalan, onlayn case-study mashg‘ulotlarida talabalar murakkab axloqiy dilemmalarni tahlil qilib, qarorlar qabul qilish jarayonida o‘z pozitsiyasini asoslashni o‘rganadilar. Shu tarzda ular nazariy bilimni amaliy ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashtiradi.

**Axloqiy xavfsizlikni ta‘minlash.** Raqamli vositalar shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish, plagiat va intellektual mulkni hurmat qilish, onlayn muloqotda etik tamoyillarni saqlash mexanizmlarini joriy etishga imkon beradi. Talabalar raqamli muhitda o‘zini qanday tutishni, axloqiy va huquqiy me‘yorlarga rioya qilishni o‘rganadilar, bu esa ularning fuqarolik va ijtimoiy mas‘uliyatini oshiradi.

**Gamifikatsiya va simulyatsiyalarni qo‘llash** Gamifikatsiya elementlari, masalan ball tizimi, reytinglar, raqobat va mukofotlash, pedagogik jarayonni qiziqarli va motivatsion qiladi. Virtual simulyatsiyalar orqali talabalar axloqiy qarorlarni real vaziyatlarga o‘xshash sharoitda qabul qilishni mashq qiladilar. Bu nafaqat ularning axloqiy tafakkurini rivojlantiradi, balki jamoaviy ishlash, muloqot va liderlik ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Shunday qilib, raqamli yondashuv pedagogik texnologiyalarni faqat interaktiv va innovatsion qilish bilan cheklanmaydi, balki bo‘ljak o‘qituvchilarda axloqiy qadriyatlar, kasbiy mas‘uliyat va ijtimoiy javobgarlikni uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Bu jarayon pedagogik faoliyatni tizimli, shaffof va maqsadli qiladi, talabalarda mas‘uliyatli va etik qaror qabul qilish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Bo‘ljak pedagogning shaxsiy qadriyat tizimi uning kasbiy madaniyati, pedagogik faoliyati va professional identifikatsiyasining markaziy elementi hisoblanadi. Raqamli vositalar - raqamli portfoliolar, onlayn baholash tizimlari, virtual loyihalar, forumlar va axborot almashinuvi platformalari - pedagogik jarayonda axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy mas‘uliyatni tizimli tarzda uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Bu integratsiya quyidagi jihatlarda bo‘ljak pedagoglarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta‘minlaydi:

Raqamli muhitning turli vositalari yordamida pedagoglar zamonaviy texnologiyalarni maqsadli va samarali qo‘llashni o‘rganadi. Shu orqali ular o‘quv jarayonini interaktiv, individual va jamoaviy faoliyatga moslashtirish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Virtual case-study, interaktiv loyihalar va reflektiv mashg‘ulotlar pedagoglarni murakkab vaziyatlarda ongli va axloqiy jihatdan asoslangan qarorlar qabul qilishga o‘rgatadi. Bu ularning mustaqil tafakkur va analitik qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Jamoaviy mas‘uliyat va liderlik onlayn hamkorlik va guruhiy loyihalar pedagoglarga jamoada samarali ishlash, hamkorlik va liderlik ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Shu tarzda bo‘ljak o‘qituvchilar ijtimoiy mas‘uliyatni amalda his qiladi va guruhni muvaffaqiyatga yetaklashni o‘rganadi. Axloqiy va fuqarolik yetuklik raqamli platformalarda axborot etikasi, shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish, intellektual mulkni hurmat qilish kabi tamoyillarni doimiy amaliyotda qo‘llash pedagoglarning axloqiy tafakkurini va fuqarolik ongini mustahkamlaydi. Bu esa ularni shaxs sifatida yetuk va mas‘uliyatli qiladi. Shunday qilib, raqamli vositalar pedagogik jarayonni nafaqat interaktiv va innovatsion qiladi, balki bo‘ljak o‘qituvchilarda axloqiy tafakkur, ijtimoiy mas‘uliyat, fuqarolik ongini va professional etikaning kompleks tarzda shakllanishini ta‘minlaydi. Bu integratsiyalashgan yondashuv zamonaviy pedagogni nafaqat bilim uzatuvchi, balki jamiyatning ma‘naviy va axloqiy rivojlanishiga hissa qo‘shuvchi yetuk shaxs sifatida tayyorlashga xizmat qiladi.

**Xulosa.** Maqolada raqamli ta‘lim vositalarining bo‘ljak o‘qituvchilarda ijtimoiy mas‘uliyat va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilindi. Raqamli pedagogik vositalar nafaqat bilim berish jarayonini samarali tashkil etadi, balki o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy qadriyatlarini rivojlantirish, ijtimoiy mas‘uliyatni mustahkamlash va axloqiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini

shakllantirish imkoniyatini yaratadi. Maqolada ko'rsatib o'tilgan yo'llar - deontologik ta'lim, virtual muammoli vaziyatlar, raqamli refleksiya, axborot etikasi treninglari va jamoaviy ijtimoiy loyihalar - bo'lajak pedagoglarni axloqiy, mas'uliyatli va jamiyatga foydali shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Raqamli ta'lim vositalari zamonaviy pedagogik jarayonda innovatsion, interaktiv va axloqiy mas'uliyatli ta'lim muhitini yaratishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Abdullayeva M.O. (2025). Hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishning zamonaviy yondashuvlari. Guliston davlat universiteti ilmiy jurnali.
2. Boboxujayev J.U. (2025). Ta'lim tizimida deontologik yondashuvlar. Guliston davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchi.
3. Usmonova M. (2025). Milliy qadriyatlar va pedagogik faoliyat. Namangan davlat pedagogika instituti, ilmiy maqola.
4. UNESCO (2021). Digital Pedagogy and Teacher Competencies. Paris: UNESCO Publishing.
5. Selwyn, N. (2016). Education and Technology: Key Issues and Debates. London: Bloomsbury Academic.
6. Mishra, P., & Koehler, M.J. (2006). Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge. Teachers College Record, 108(6), 1017–1054.

### **LINGUISTIC FEATURES OF ENVIRONMENTAL DISCOURSE IN THE ERA OF GLOBALIZATION**

**Nagaeva Adelya Nailievna, Khasanova Dilshoda Zafar kizi**

1st year students of the direction "Linguistics" Branch of KFU in Jizzakh, Uzbekistan

**Scientific supervisor: Navruzova Elena Pavlovna**

assistant, Branch of the KFU in Jizzakh, Uzbekistan

**Abstract:** This research paper examines ecological discourse as a linguistic phenomenon in the context of globalization. The main characteristics of ecological discourse are analyzed, including its value orientation, evaluativity, and metaphorical nature. The study explores lexical and syntactic features of ecological communication, as well as the influence of globalization processes on the formation and development of ecological discourse. National and cultural features of conceptualizing environmental issues in various linguistic traditions are identified. Special attention is given to modern trends in the development of ecological discourse under the conditions of digitalization of the communicative space. The paper also outlines promising research directions in ecolinguistics and the practical application of the obtained results in education, ecological translation, and social communication.

**Keywords:** ecological discourse, ecolinguistics, globalization, ecological terminology, metaphorization, digitalization of communication, intercultural communication, ecological consciousness.

### **ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ДИСКУРСА В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ**

**Нагаева Аделя Наильевна, Хасанова Дилшоода Зафар кизи**

Студенты 1-го курса направления «Лингвистика»

Филиал КФУ в г. Джизаке, Узбекистан

**Научный руководитель: Наврузова Елена Павловна**

ассистент, филиал КФУ в г. Джизаке, Узбекистан

**Аннотация:** В данной исследовательской работе рассматривается экологический дискурс как лингвистический феномен в условиях глобализации. Проанализированы основные характеристики экологического дискурса, включая его ценностную ориентацию, оценочность и метафоричность. Исследованы лексические и синтаксические особенности экологической коммуникации, а также влияние глобализационных процессов на формирование и развитие экологического дискурса. Выявлены национально-культурные особенности концептуализации экологических проблем в различных языковых традициях. Особое внимание уделено современным тенденциям развития экологического дискурса в условиях цифровизации коммуникативного пространства, а также предопределены перспективные направления